

TASAVVUF ADABIYOTIDA RUHIY – MA’NAVIY MUHABBAT MASALASI

Bahronova Dilmora Alisher qizi

BuxDU filologiya fakulteti talabasi

Telefon raqami: +998914000821

Annotatsiya :

Ushbu tezisdagi tasavvuf adabiyotida uchraydigan ruhiy - ma’naviy muhabbat atamasi izohlanadi. Adabiyotimizda pok ishq yoki yuksak ma’naviy kamolot egalarining pok va g’arazsiz ruhiy - ma’naviy muhabbat egalariga bo’lgan pok munosabatlari haqida fikr yuritilgan. Bu muhabbatning badiiy adabiyotdagi isboti sifatida “Lison ut – tayr” dostonidan shu mavzuga oid hikoyalar keltirilgan va ulardan tegishli xulosalar chiqarilgan.

Kalit so’z :

Ruhiy - ma’naviy muhabbat , Najmiddin Kubro, Bobo Faraj , Jaloliddin Rumi , Shams Tabriziy , Alisher Navoiy , Hasan Ardasher , Abdurahmon Jomiy, Bedil va Shoh Kobuliy, “Lison ut-tayr”

Tasavvufda ishq 3 guruhga bo’linadi : 1. Majoziy ishq (Bashariy ishq) ; 2. Ilohiy ishq (Ruhoni ishq) ; 3. Ruhiy – ma’naviy ishq. Majoziy ishq insonning insonga muhabbatidir, ilohiy ishq esa bandaning Allohga bo’lgan muhabbati (banda va Alloh o’rtasidagi muhabbat ham ikki tomonlama bo’ladi : Allohning bandaga muhabbati va bandaning Allohga bo’lgan muhabbati)dir. Imom G’azzoliyning ta’kidlaganidek , insonning o’zini sevishi ham Allohga bo’lgan muhabbatdan nishonadir, negaki inson Mutlaq ruhning bir bo’lagi. Shuning uchun ham ular hech qachon bir - biriga zid qo’yilmagan.

Ruhiy – ma’naviy muhabbat pok ishq yoki yuksak ma’naviy kamolot egalarining pok va g’arazsiz ko’z bilan pok go’zal vujudga boqib , pok lazzat olishdir. Bunda , avvalo , ko’ngul , tan va fikr pok bo’ladi , lekin har xil g’ayri majzub ishlar va yomon amallar qilinmaydi. Adabiyotimizda Najmiddin Kubro va Bobo Faraj , Farididdin Attor va majzub darvesh , Jaloliddin Rumi va Shams Tabriziy , Alisher Navoiy va Sayyid Hasan Ardasher , Navoiy va Abdurahmon Jomiy, Bedil va Shoh Kobuliy o’rtasida ruhiy – ma’naviy muhabbat bor deb ko’rsatiladi. Chunonchi , eng kuchli ruhiy – ma’naviy muhabbat sohiblari Jaloliddin Rumi va Shams Tabriziy bir – biriga shu darajada qattiq bog’lanadiki , ularning bir – biridan ajralishi ular uchun eng og’ir judolik bo’lgan. Jaloliddin Rumi esa hajr va firoq olovida qovirilgan. Jaloliddin Rumi Shams Tabriziy timsolida haqiqiy komil shaxsni ko’rgan edi , uning so’zlaridan ilohiy irfon va ilhom topgan edi. Shuning uchun ham u Shamsiddin tomon tinmay talpingan, unga oshiqqan. Ulardagi muhabbat shu darajada pok , g’oyat nozik va ibratli bo’ladiki , ular hatto uch oy davomida ikkalasi bir uyda xilvatnashin bo’lib suhbatlashganlar. Ammo bu muhabbat muridlariga yoqmaydi va bu ikki pok qalbni bir – biridan ayirishadi , ya’ni Shamsiddin qatl etib , Rumiyni umrbod hajr olovida yoqishadi. Bundan alamzada bo’lgan Rumi ishqni tarannum qiluvchi ash’orlar bitib , ularni Shams Tabriziyga bag’ishlaydi va Rumiyni shunday buyuk shoir bo’lib yetishishida Shams Tabriziyning hissasi beqiyosdir.

Bunday munosabatni Najmiddin Kubro va Bobo Faraj o’rtasida ham kuzatish mumkin. Bobo Farajdan bir soniya uzoqlashgan Najmiddin Kubro betoqat va beqaror bo’lib , tuni bilan uxlo olmay chiqqan. Kubroning majzublik , ya’ni botiniy - laduniy ilm , irfon olami va behudlikka mayli borligi uni Bobo Faraj tomon talpintiradi. Bobo Faraj ham Kubroning basirat ko’zi ochilishida katta rol o’ynagan. Ular o’rtasidagi bir - biriga talpinishlar , pok vujudga boqib , pok lazzat olish ruhiy - ma’naviy muhabbatdir. Yoxud Bedil va Shoh Kobuliy o’rtasida ham xuddi shunday munosabatlar kuzatilgan. Shoh Kobuliy uchratganda yigirma ikki yoshli Bedil ham xuddi shunday muhabbatga cho’ngan. Bedil va Shoh Kobuliy Dehli chekkasidagi bir vayronada butun tunni o’tkazib , suhbat qiladilar. Tongda esa Kobuliy topolmaydi. Uni juda ko’p izlaydi va uning yodi ila muhabbatga limmo-lim ko’plab g’azallar va dostonlar yaratadi. Shoh Kobuliy Bedilning ilhom manbayi va

ma'naviy ustoz bo'lgan. Bu oshiqlar ana shunday firoq va hajr o'tida yonish orqali yuksak ma'naviy kamolot egasiga aylanadi.

Ruhiiy - ma'naviy muhabbat tufayli Alisher Navoiy va Sayyid Hasan Ardasher ham tez - tez uchrashib turgan. Navoiy "bir kun alar mulozamatiga yetmas erdi, sabr-u toqatim qolmas erdi", deydi. O'z navbatida, Sayyid Hasan Ardasher ham Navoiy ila diydor ko'rishmasa, uning suhbatini eshitmasa, bezovtalanar edi. Navoiy o'zining eng yaqin sirdoshi, maslahatgo'yi va rozi dil aytadigan suyanchig'i Sayyid Hasan Ardasher ila uchrashmoq va suhbat qurmoq uchun alohida xona qurib bergan. Navoiy Hasan Ardasher bilan ota va o'g'ildek edi va Sayyid Hasan Ardasher ila qanday munosabatda bo'lgan bo'lsa, Abdurahmon Jomiy bilan ham xuddi shunday munosabatda bo'lgan. Ya'nikim, Alisher Navoiy ham Abdurahmon Jomiy, ham Sayyid Hasan Ardasher o'zi uchun ustoz va sirdosh deb bilgan hamda ularning har ikkalasi bilan ruhiy - ma'naviy muhabbat boylagan.

Ruhiiy - ma'naviy muhabbat namunalarini Alisher Navoiyning "Lison ut - tayr" asarida ham uchratish mumkin. Masalan bir hikoyatida go'zalligi oldida Yusuf ham qul bo'lgan bir podshoh bo'lganligi va unga butun olam shaydo bo'lganligi haqida so'z yuritiladi. U podshoh "so'z boshlasa, jon olar, tabassum qilsa, jon kirgizardi". Bir kuni u podshoh dasht uzra ot solganda, yuz ming majnun zor bo'lib yotganiga ko'zi tushadi, ularni majnun holiga solgan ma'shuq shu podshohning o'zi edi. Nogahon ko'zi ikki yosh devonasifat oshiqlarga ko'zi tushib, ularni huzuriga olib kelishlari uchun buyruq beradi. Shoh ulardan birini mahbus qilib, zindonga tashlanadi, ikkinchisini esa itboqarlik xizmatiga tayinlaydi. Ammo bu azob-uqubatlar, sinovlar ham ular uchun rohatday tuyuladi. Shohning visoli umidida uning iti bo'lishga ham tayyor oshiqning itboqar qilib tayinlanishi uning uchun juda katta sharafdir. Podshohning ishq zo'r kelib, uning uchun go'rda yotishga ham tayyor bo'lgan oshiqning zindonband qilinishi esa uning shoh visoliga yetishishiga umid borligini anglatadi va bu oshiq uchun chin ma'noda rohatdir. Bu oshiqlarning pok qalblarini anglagan podshoh har ikki oshiqni ham o'zining eng yaqin mahramlariga aylantiradi. Alqissa shulkim, oshiqlarning pok qalblari va pok ishlari, talab umidida sodiqliklari ularni pok maqsadlariga erishtirdi va ular pok lazzatga yetishishdi. Ularda pok ishq va pok lazzatga erishgan oshiqlar hamda ularning pok maqsadga sabr va mashaqqat orqali, hajr o'tida o'rtanishlar orqali asl pok maqsadlariga erishganliklari tasviri keltiriladi. Bu kabi hikoyatlar esa asarning qator hikoyatlarida uchraydi va ularda ana shu ruhiy - ma'naviy muhabbat tarannum qilinadi. Masalan, go'zallikda tengsiz bir shahzoda va unga oshiq xaloyiq haqidagi hikoyatda ham xuddi shunday ruhiy - ma'naviy muhabbat mavzusi yoritilgan. U shahzoda shunchalik go'zal bo'ladiki, otasi o'g'lining tengsiz husnidan tashvishlanib, uning husnidan olamga o't tushmasligi uchun bir qasrda yashirin saqlaydi. Nogahon shoh ajal jomin ichib, taxtni shahzodaga qoldiradi. Shahzoda endi mamlakat uzra qay tomon ot sursa, unga xalq oshiq bo'lib, ishqdan faryod ko'tarishar edi. Ahvol shunchalik borib yetadiki, shahzoda o'z holiga hayrati ortib, ishq ahliga o'z hunari doirasida sinov berdi. Agar ulardan qay biri shohga yoqsa, u hunarmand oshiqni o'ziga mulozim qilib olish hukmin xalqqa eshittirdi. Xullas, shaharda hamma o'z ishiga berilib ketdi, hammasi shoh visolidan umid qilar, uning mulozimi bo'lish va u bilan suhbat qurish niyatida avj bilan ishlar edi. Lekin shohga ularning hech bir qilgan ishi yoqmadi.

Yura - yura oxiri u bir g'arib - bechora turgan joyga bordi. Bu kishi oshiqlikdan nihoyatda aftodahol bo'lgan va hajr o'tidan umidsiz holga tushgan edi. "Ishq tig'i uning xasta ko'nglini chok etgan, ko'nglidan o'zligini siqib chiqargan edi". Shu holatda o'zidan - o'zi nolir, ahvolidan shikoyat qilar va shoh vaslidan umidsizlanar edi. Shoh uning bu ahvolini ko'rди va bu holdan qattiq ta'sirlandi. Shoh bu vayronaga kirib, unga "lutf ko'rgizib, ko'nglini ovladi". Oshiq esa bu quvonchdan to'niga sig'may, shoh qo'lida o'z jonini tortiq qildi. Qissadan hissa shulkim, "ishq aro bu yonish va kuyish uning ruh shamini porlagan mash'alga aylantiradi", deydi Navoiy. Oshiq uchun haqiqiy azob bu mahbub diydoridan mahrumlik, judolik, ya'ni hijron azobidir. Ishq oshiqqa dard beradi, unga aziyat yetkazadi, qiynaydi va shu bilan birga oshiqning dardini davolovchi ham, unga halovat beruvchi ham ishqdir. Oshiq uchun chin baxt ma'shuq qo'lida, mahbub yo'lida jon bermoqlikdir. Yuqoridagi hikoyada keltirilgan oshiq esa tom ma'noda chin baxtga erishdi,

murodiga yetdi. U shoh huzuriga borish va uning visoliga erishish haqida uzluksiz o'ylardi, ammo shoh uning kulbayi vayronasiga shaxsan o'zi tashrif buyurdi, oshiq esa uning vasliga erishdi va uning qo'llarida jon berdi. Bu uning asl maqsadi edi va u pok maqsadiga erishdi. Ruhiy – ma'naviy muhabbat mana shunday pok komolotga erishmoqlikdir.